

“RTM ONLAYN” kredit mahsulotidan foydalanish bo‘yicha OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

“Garant bank” aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda **“Bank”** deb yuritiladi) tadbirkorlik sub’ekti/boshqa yuridik shaxsga (bundan buyon matnda **“Qarz oluvchi”** deb yuritiladi) mazkur shartnomani ommaviy oferta shartlarida tuzishni taklif qiladi.

1. Shartnoma predmeti

1.1. Bank Qarz oluvchiga onlayn hisobvaraqlar ochish hamda mazkur shartnomada ko‘rsatib o‘tilgan miqdorda va shartlar asosida kredit berish majburiyatini, Qarz oluvchi esa o‘z navbatida olingan kreditni belgilangan muddatda qaytarish va kreditdan foydalaniganligi uchun diskont/foizlar to‘lash majburiyatini oladi.

2. Asosiy tushunchalar

2.1. Ushbu shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

“RTM onlayn” krediti (keyingi o‘rinlarda — kredit) – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 sentabrdagi 833-sonli qaroriga asosan “Raqamli transformatsiya markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (keyingi o‘rinlarda — Markaz) elektron kooperatsiya portali orqali mahsulot va xizmatlarni sotish hamda xarid qilish savdolarida ishtirok etish uchun avans summasining 1,1 foiz (1 foiz – zakalat hamda 0,1 foiz operatorning vositachilik yig‘imi) miqdoridagi to‘lovlarini amalga oshirishga, biroq bir qarz oluvchi uchun savdolar sonidan qat’iy nazar **500.000 (besh yuz ming)** so‘mdan – **100.000.000 (bir yuz million)** so‘mgacha onlayn ajratiladigan kredit turi;

Markazning elektron kooperatsiya portali (keyingi o‘rinlarda — Portal) - mahalliy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning elektron savdosi amalga oshiriladigan portal;

Diskont – 30 kun muddatgacha ajratilgan kreditlar bo‘yicha elektron platformadan foydalanilganlik uchun 1 (bir) martalik to‘lov;

Diksonni to‘lash manbasi – kredit ajratilishidan avval Qarz oluvchi hisobvarag‘i (o‘z mablag‘lari hisobidan) orqali to‘lanadi

Foizlarni to‘lash – har oyning beshinchi sanasida Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha barcha o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarilguniga qadar.

Asosiy qarzni to‘lash – elektron savdolarida g‘olib deb topilganda, g‘oliblik e’lon qilingan kuni ixtiyoriy ravishda yoki grafik asosida Qarz oluvchining o‘z mablag‘lari hisobidan har oyning beshinchi sanasida qoplanadi yoki elektron savdolarida g‘olib deb topilmaganda, mazkur ofertaga muvofiq, avtomatik tarzda Qarz oluvchining rozilgisiz (akseptsiz) kredit hisobvarag‘iga qaytariladi. Bunda, ajratilgan kreditdan 15 (o‘n besh) kalendar kunida foydalanilmagan taqdirda yoki savdolarida g‘olib deb topilganda kreditning ushbu qismi avtomatik tarzda Qarz oluvchining rozilgisiz (akseptsiz) kredit hisobvarag‘iga qaytariladi.

Moliyalashtirishni ochish sanasi – kreditning yoki uning bir qismining ajratish sanasi (kredit bo‘yicha).

Kredit qarzdorligi (asosiy qarz) – Qarz oluvchi tomonidan foydalanilgan, ammo uni qaytarib bermagan va to‘lanmagan Kredit yoki uning bir qismi.

Kreditor/Bank – “Garant bank” AJ Amaliyot boshqarmasi/BXOlari

Kredit bo‘yicha diskont/foiz stavkasi – 30 kungacha **3 (uch) foiz** diskont, 30 kundan oshgan muddatga yillik **30 (o‘ttiz) foiz**.

Kredit muddati – 30 (o‘ttiz) kungacha, biroq elektron savdolarida g‘olib deb topilganda, 12 (o‘n ikki) oygacha foydalanish huquqi bilan.

Asosiy qarzni to‘lash bo‘yicha imtiyozli davr – mavjud emas.

Diskont/foizlarni hisoblash davri – diskont 30 kun muddatga 1 marta hisoblanadi, foizlar esa o‘zgarmas stavkada 30 - kundan boshlab har kuni hisoblanadi va Qarz oluvchi tomonidan qarz to‘liq to‘lanmaguncha, keyingi foizlarni to‘lash sanasida (shu sanadan tashqari) tugaydi.

Ijbiy kredit tarixi – barcha tijorat banklarida joriy muddati o‘tgan kredit qarzdorligi mavjud bo‘lmagan hamda so‘ngi 6 (olti) oy davomida kreditlari bo‘yicha 90 (to‘qson) kundan ortiq muddatga kechiktirilgan to‘lovlarni yuzaga keltirmagan kredit tarixi

Uchinchi tomon – ushbu shartnoma tomoni bo‘lmagan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs.

2.2. Ushbu shartnomada, agar kontekst bo‘yicha boshqacha talab qilinmasa, birlik ma‘nosini bildiruvchi so‘zlar ko‘plik sonini va aksinchani anglatadi.

3. Kredit ajratish shartlari

3.1. Kredit mablag‘lari ijbiy kredit tarixiga ega Qarz oluvchilarga Markaz Portali orqali mahsulot va xizmatlarni sotish hamda xarid qilish jarayonida ishtirok etish maqsadida zakalat to‘lovi uchun onlayn tarzda Markaz hisobvarag‘iga pul ko‘chirish yo‘li bilan ajratiladi.

3.2. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma shartlariga ko‘ra kredit olish uchun barcha talablarni bajargandan so‘ng, shuningdek foydalanilishi rejalashtirilgan kredit summasining 3 (uch) foizi miqdorida bir martalik diskont to‘lovini o‘z mablag‘i hisobidan amalga oshirgandan so‘ng kreditdan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.

3.3. Bank tomonidan ajratilgan kredit to‘liq to‘lanmagunga qadar, Qarz oluvchiga boshqa kredit olish imkoniyati chegaralanadi (1 ta mijoz = 1 ta aktiv kredit). Bank tomonidan ajratilgan kredit faqatgina lotda ishtirok etish uchun ishlatiladi (1 ta kredit = bir nechta lotda foydalanish uchun).

3.4. Bank tomonidan ajratilgan kreditdan, 15 kalendar kuni mobaynida, hech qaysi lot uchun foydalanilmasa, kredit summasi avtomatik tarzda, **kredit oluvchining roziligisiz (akseptsiz), mijozning bankdagi ssuda hisobvarag‘iga to‘liq qaytariladi.**

3.5. Kredit summasi lot uchun foydalanilganida hamda savdo natijalariga ko‘ra g‘olib deb topilmaganda, mazkur lotga yo‘naltirilgan kredit summasi **to‘liq mijozning bankdagi ssuda hisobvarag‘iga qaytariladi.**

3.6. Qarz oluvchi kreditni 15 kalendar kuni mobaynida bir necha bora va har xil lotlar uchun ishlatsa, 15 kalendar kuni oxirida kredit summaning qoldiq qismi (*avans to‘lovlari uchun yo‘naltirilmagan qismi*) **avtomatik tarzda Qarz oluvchining bankdagi ssuda hisobvarag‘iga qaytariladi.**

3.7. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlar tegishli bajarilishini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq, Bankka qarzni so‘ndirish bo‘yicha Qarz oluvchining barcha banklardagi har qanday hisobvaraqlaridan har qanday valyutadagi pul mablag‘larini akseptsiz chiqarib olish huquqini beradi.

3.8. Kreditdan foydalanish muddati – ushbu Shartnoma imzolangan sanadan boshlab, 30 (o‘ttiz) kungacha, biroq elektron savdolarida g‘olib deb topilganda, g‘olib deb topilgan lotga ishlatilgan kredit mablag‘laridan 12 (o‘n ikki) oy muddatgacha foydalanishi mumkin.

3.9. Qarz oluvchi kredit asosiy qarzni elektron savdolarida g'olib deb topilganda, g'oliblik e'lon qilingan kuni yoki grafik asosida o'z mablag'lari hisobidan qoplaydi yohud elektron savdolarida g'olib deb topilmagan holatda, mazkur shartnomaga muvofiq, 1 (bir) ish kunidan kechikmasdan Qarz oluvchining roziligisiz (akseptsiz) kredit hisobvarag'iga qaytariladi.

3.10. Qarz oluvchida kreditdan 12 oygacha foydalanish huquqi yuzaga kelganda, kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq har oyning 5 - sanasidan kechiktirmay oylik kredit to'lovlarini amalga oshiradi.

Bunda kredit asosiy qarzi kreditning muddatiga mutanosib ravishda teng miqdorlarda taqsimlanadi.

3.11. Bank tomonidan kredit ajratilishi ma'qullangandan so'ng Qarz oluvchi tomonidan kredit mablag'lari **24 (yigirma to'rt) soat** davomida to'liq o'zlashtirishi shart. O'z vaqtida o'zlashtirilmagan kredit mablag'lari keyinchalik ajratib berilmaydi.

3.12. Muddati o'tgan asosiy qarzдорlik uchun kredit foizi o'rnatilgan foiz stavkasidan **1,5 barobar** oshirilib hisoblanadi.

3.13. Qarz oluvchida kreditdan 12 oygacha foydalanish huquqi yuzaga kelganda, foizlar summasi Qarz oluvchining kredit bo'yicha amaldagi qarzдорligidan kelib chiqqan holda, kreditdan foydalanish davrining amalda o'tgan kunlar sonini yillik bazaviy davrga (365 kunga) bo'lish asosida hisob-kitob qilinadi. Kredit uchun hisoblangan foizlar to'lovi milliy valyutada, moliyalashtirish ochilgan sanadan boshlab, oyiga bir marta, har oyning 5 kunida amalga oshiriladi. Foizlar bo'yicha oxirgi to'lov kredit qaytarilishining yakuniy sanasida amalga oshiriladi.

Kredit bo'yicha asosiy qarzni to'lash Qarz oluvchi tomonidan milliy valyutada amalga oshiriladi.

3.14. Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnomaning imzolanishi (ma'qullanishi) Bankka Shartnoma bo'yicha majburiyatlar tegishlicha bajarilmagan taqdirda Qarz oluvchining barcha banklardagi har qanday hisobvaraqlaridan har qanday valyutadagi pul mablag'larini chiqarib olish huquqini beruvchi aksept hisoblanadi.

3.15. Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha amalga oshirilgan har qanday to'lovlar, boshqa majburiy qoidalar mavjud bo'lmagan taqdirda yoki Bank boshqacha qaror qabul qilmasa, Bank tomonidan Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish uchun quyidagi ketma-ketlikda yuboriladi:

komissiyalar, jarimalar, penyalar, muddati o'tgan asosiy qarzдорlikka hisoblangan yuqori foizlar;

kredit foizlari bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar;

kreditning asosiy qarzi bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar;

kredit foizlari bo'yicha muddatli to'lovlar;

kredit asosiy qarzi bo'yicha muddatli to'lovlar.

Asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar to'langanlik sanasi deb mablag'larni ko'rsatilgan hisobvaraqlarga kelib tushgan kun hisoblanadi.

3.16. Shartnoma bo'yicha asosiy qarz va foizlarni bajarish sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, to'lov undan keyingi birinchi ish kunida amalga oshiriladi.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaning shartlari buzilganda Bank asosiy qarz, hisoblangan foizlar va kredit bo'yicha boshqa to'lovlar bo'yicha butun qarzdorlikni Qarz oluvchining istalgan hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish.

4.1.2. Qarz oluvchidan ushbu Shartnoma shartlari va amaldagi qonunchilik talablari asosida kredit ta'minotini belgilangan muddat va miqdorlarda taqdim etilishini talab qilish.

4.1.3. Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik va/yoki lozim darajada bajarmaslik holatlari kuzatilgan taqdirda quyidagi harakatlarni amalga oshirish:

Qarz oluvchiga majburiyatlarning bajarilmaslik hollari boshlanganligi to'g'risidagi yozma hamda elektron aloqa vositalari orqali talabnomani uni bartaraf etish muddatlarini ko'rsatgan holda yuborish;

ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini qo'shimcha ravishda ta'minlanishini talab qilish;

Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarning buzilishi yoki lozim darajada bajarilmaganligi, Qarz oluvchi moliyaviy ahvoli yomonlashgan hamda kreditni qaytaruvchi har qanday omillar paydo bo'lganda, qarzdorlikni to'liq undirish to'g'risida tegishli sudga da'vo arizasi kiritish;

undiruvni belgilangan tartibda Qarz oluvchining mol-mulkiga qaratish;

ushbu shartnomaga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlardan foydalanish.

4.2. Qarz oluvchining huquqlari:

4.2.1. Bank va Qarz oluvchi tomonidan belgilangan barcha jarayonlar amalga oshirilgandan so'ng, belgilangan miqdor va muddatlarda kredit ajratilishini talab qilish.

4.2.2. Kreditdan foydalanish holati to'g'risida ma'lumot olish;

4.2.3. Ushbu shartnoma tuzilgan (ma'qullangan) paytdan boshlab kredit mablag'lari ajratilgunga qadar bo'lgan davrda hech qanday to'lovlarni to'lamasdan kredit olishni rad etish;

4.2.4. Mazkur Shartnoma bo'yicha kredit qarzdorligini muddatidan avval to'lash. Bunda, to'lov kuniga qadar kredit uchun hisoblangan foizlar birinchi navbatda so'ndiriladi.

4.3. Bankning majburiyatlari:

4.3.1. Qarz oluvchiga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va tartibda kredit berish;

4.3.2. Qarz oluvchiga kredit berish jarayonida ishtirok etuvchi hisobvaraqlar harakati va hisob-kitoblar, komissiyalar va boshqa to'lovlarni hisoblash bo'yicha ko'chirmalarni taqdim etish;

4.3.3. Qarz oluvchi tomonidan kredit to'liq qaytarilgandan so'ng, tegishli ssuda hisobvaraqlarini yopish.

4.4. Qarz oluvchining majburiyatlari:

4.4.1. Savdolarida g'olib deb topilmaganda yoxud ajratilgan kreditdan 15 (o'n besh) kalendar kuni davomida foydalanilmagan taqdirda kredit mablag'larini, o'zining rozilgisiz (akseptsiz tarzda), bankka qaytarib to'lanishiga o'zining roziligini berish;

4.4.2. Kreditni qaytarish to'lov grafigiga muvofiq har oylik to'lovlarni amalga oshirish yo'li bilan kredit asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlarni belgilangan muddatlarda to'liq miqdorda to'lash;

4.4.3. Qarz oluvchi bankning birinchi talabi bo'yicha bank tomonidan amalga oshirilgan barcha qo'shimcha xarajatlarni yoki bank ushbu shartnomaning bajarilishi munosabati bilan bank tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarni qoplash;

4.4.4. Ushbu Shartnoma bo'yicha kreditdan foydalanish jarayonida kreditning muddatlilik, maqsadlilik, to'lovlilik va qaytarishlik tamoyillariga qat'iy rioya qilish;

4.4.5. Qarz oluvchining tashkiliy huquqiy shakli, manzili, rekvizitlari va boshqa ma'lumotlar o'zgargada, bu haqda Bankka 5 (besh) bank ish kuni ichida xabar berish hamda tegishli hujjatlarni taqdim etish;

4.4.6. Ushbu Shartnomaning amal qilish davrida hamda tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarmagunlariga qadar Qarz oluvchining xo'jalik faoliyatiga va uning kreditni qaytarish qobiliyatiga qandaydir tarzda salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan xo'jalik va yuridik operatsiyalarning istalgan turlarini hamda Qarz oluvchining ustaviga zid bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirmaslik, Qarz oluvchi o'z faoliyatini tugatmaslik.

5. Majburiyatlarni bajarmaslik holatlari

5.1. Ushbu bandeda qayd etilgan xodisalardan istalgani majburiyatlarni bajarmaslik holati hisoblanadi:

Qarz oluvchi tomonidan kredit, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarning ushbu shartnoma va to'lovlar jadvali bo'yicha amalga oshirmaganlik;

Qarz oluvchi to'lov qobiliyatining yomonlashishi yoki ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning muntazam ravishda bajarilmasligiga olib keladigan axborotlarni yashirilishi;

ushbu shartnoma shartlarining buzilishi;

ushbu shartnoma bilan bog'liq bo'lgan boshqa shartnomalar (garov, sug'urta va boshqalar) shartlarining buzilishi.

6. Kredit ta'minoti

6.1.1. Kredit bo'yicha mablag'lar ta'minotsiz ajratiladi.

7. Kredit qarzдорligini muddatidan oldin undiruvga qaratish

7.1. Bank Qarz oluvchidan kredit summasini va boshqa tegishli to'lovlarni muddatidan oldin zudlik bilan to'lab berilishini talab qilish hamda muddatidan oldin undirish to'g'risidagi da'votablari bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lishiga quyidagi holatlardan biri davom etayotgani asos bo'ladi:

a) Qarz oluvchi kredit bo'yicha o'z qarzlarini qaytarish qobiliyatini yo'qotishi yoki ularni to'lash muddatida qaytarmasligi va bu holat to'lash muddati buzilgan vaqtdan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun davom etsa;

b) Qarz oluvchi ushbu Kredit Shartnomasi bo'yicha va/yoki istalgan boshqa kelishuv bo'yicha (shu jumladan, to'lov jadvali bo'yicha to'lovni amalga oshirish) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmayotganligi va bu holat Bank Qarz oluvchiga bajarmayotganlik holati haqida xabar bergandan so'ng 5 (besh) ish kuni davom etsa;

v) Qarz oluvchining (Kredit bo'yicha bo'lgan qarzдорlikdan tashqari) qandaydir qarzдорligi yuzasidan yoki Qarz oluvchining belgilangan muddatda to'lanmagan qandaydir qarzдорligi bo'lgan shartnomaga asosan belgilangan majburiyatlar bajarilmasa;

g) Kredit bo'yicha ta'minot yoki ta'minotning biron bir qismi ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarga nisbatan o'zi kuchini yo'qotsa;

d) davlat organlari Qarz oluvchiga tegishli mol-mulkning yoki boshqa aktivlarning barchasini yoki bir qismini, yoki Qarz oluvchining mol-mulkini yoki boshqa aktivlarini, yohud Qarz oluvchining faoliyatini tugatish uchun istalgan harakatni amalga oshirsa;

ye) Qarz oluvchi yoki Qarz oluvchiga aloqador bo'lgan uchinchi shaxslarga nisbatan da'votablari yoki ish yurituvchi qo'zg'atilishi va ularning natijasida Qarz oluvchining istalgan mol-mulki uning kreditorlari o'rtasida taqsimlanishi ehtimoli mavjud bo'lsa;

j) Qarz oluvchining mol-mulki boshqa majburiyatlarga asosan undiruvga qaratilsa yoki unga band solinsa.

8. Alohida shartlar

8.1. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra Qarz oluvchiga nisbatan ushbu shartnoma bo'yicha o'ziga tegishli bo'lgan huquqlardan istalganini qo'llashi yohud qo'llamasligi mumkin.

8.2. Bank tomonidan ushbu huquqlarning qo'llanmasligi yohud qisman qo'llanishi ushbu huquqlardan voz kechishni anglatmaydi va ular kelgusida istalgan vaqtda qo'llanishi mumkin.

8.3. Ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi Bankka shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur Shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan hamda qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa maqsadlarda o'zining yoki uning ta'sischi va xodimlarining har qanday ma'lumotlariga ishlav berish va foydalanish huquqini beradi.

8.4. Bank Qarz oluvchining shaxsiy va/yoki aloqa ma'lumotlari bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki foydalanmasdan, shu jumladan yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, tushuntirish, foydalanish, tarqatish (shu jumladan, Bank sheriklariga o'tkazish), shaxsiylashtirish, blokirovka qilish, yo'q qilish huquqiga ega va Qarz oluvchi rozi bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan. Qarz oluvchi Shartnomani bajarish, shuningdek Shartnomani bajarish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan boshqa maqsadlar uchun ushbu bandda ko'rsatilgan ma'lumotlarni oluvchining plastik kartochkasi emitent-bankiga taqdim etishga Bankka roziligini bildiradi.

9. Tomonlarning javobgarligi

9.1. Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi ushbu shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

10. Fors-major holatlari

10.1. Agar shartnoma imzolanganidan so'ng, taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan hamda oldindan ko'ra bilish yoki oldini olib bo'lmaydigan, favqulodda vaziyatlar oqibatidagi yengib bo'lmaydigan kuch tufayli taraflar mazkur shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasalar (fors-major), buning uchun ular javobgar bo'lmaydilar. Bunda taraflarning hech biri, ajratilgan kreditni qaytarish bo'yicha majburiyatdan tashqari, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashni talab qilishga haqli bo'lmaydi.

10.2. Quyidagilar favqulodda vaziyatlar (fors-major) bo'lib hisoblanadi: suv toshqini, yong'in, zilzila, portlash, bo'ron, yer ko'chkisi, epidemiya va boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar, fuqarolik tartibsizliklari, terrorchilik harakatlari.

10.3. Fors-major holatlari yuzaga kelganda majburiyatlar bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari davom etgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

10.4. Taraflar fors-major holatlari vujudga kelganligi va tugaganligi haqida 10 (o'n) kunlik muddatda yozma ravishda bir-birlarini xabardor qilishlari lozim.

10.5. Fors-major holatiga asoslanayotgan taraf, vakolatli davlat idorasining bunday holatlarni vujudga kelganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

10.6. Dasturiy ta'minotlarda kuzatiladigan texnik nosozliklar, shuningdek soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bilan bog'liq xarakatlar natijasida kreditni qisqa muddatda qaytarish imkoniyati bo'lmagan holatlarda kredit mablag'lari o'n ikki oy muddatga qaytarish jadvaliga muvofiq to'lab borilishi mumkin.

11. Shartnomaning amal qilish muddati

11.1. Ushbu Shartnoma imzolangan (ma'qullangan) kundan boshlab kuchga kiradi va Qarz oluvchi kredit va uning foizlarini to'liq to'laguncha hamda tomonlarning o'z zimmlariga olgan majburiyatlari bajarilgunga qadar amal qiladi.

12. Korrupsiyaga qarshi shartlar

12.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion xarakatlarni to'liq ta'qiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarini soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

12.2. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim yetishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

12.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar "Garant bank" AJning ishonch telefonlari orqali amalga oshiriladi.

12.4. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir tarafdama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

12.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlanagan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

13. Nizolarni hal etish

13.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan kelishmovchiliklar va/yoki nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan hollarda tomonlar, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qilgan holda, ularni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar. Tomonlarning kelishuviga erishilmagan taqdirda nizo O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqish uchun sud organlariga o'tkaziladi.

13.2. Nizolar kelishuv yo‘li bilan hal etilmagan taqdirda, o‘z huquqlari buzilgan deb hisoblayotgan taraf boshqa tarafga talabnoma yuboradi. Talabnoma taqdim etilgan taraf, talabnoma olingan kundan boshlab 15 kun ichida unga javob berishga majburdir. Nizolar bo‘yicha kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo Bank joylashgan joydagi sudda ko‘rib chiqiladi.

14. Yakunlovchi qoidalar

14.1. Qarz oluvchi ushbu ofertani qabul qilish jarayonida, kredit ajratishning barcha tartib va talablari, shuningdek ushbu shartnomaning barcha bandlari, belgilangan bank tariflari bilan tanishganini tasdiqlaydi va ma’qullaydi hamda o‘zining asosiy majburiyatlari sifatida qabul qiladi.

«Garant bank» AJ

100060.Toshkent sh, Sayida Baraka ko‘chasi, 78.

MFO: 00439 INN: 201053901

Tel.: (+99871) 200-27-00

Ye-mail: info@garantbank.uz

r/s № 16103000400000439002